

IX. KICHIK TADBIRKORLIK


2024 yil 1 iyul holatiga ro'yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlari (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) ning soni 36 544 tani tashkil qildi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,2 foizga o'sgan.

2024 yil yanvar-iyun oylarida 2 627 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 84,0 foizni tashkil etdi.

Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo (25,3 foiz), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (23,0 foiz), sanoat (19,3 foiz), yashash va ovqatlanish (7,3 foiz) va qurilish (5,4 foiz) boshqa tarmoqlarda tashkil etilgan.

2024 yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi

(foizda)




**Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar
va mikrofirmalar, birlikda**

	<i>yanvar-iyun 2023 yil</i>	<i>yanvar-iyun 2024 yil</i>
Buxoro viloyati	3 126	2 627
Buxoro sh.	576	510
Kogon sh.	155	69
<i>tumanlar</i>		
Buxoro	170	191
Vobkent	234	200
Jondor	245	220
Kogon	266	136
Olot	155	226
Peshko'	176	180
Romitan	323	275
Shofirkon	152	204
Qorako'l	309	148
Qorovulbozor	71	52
G'ijduvon	294	216

2024 yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Buxoro shahri (510 ta), G'ijduvon (216 ta), hamda Romitan (275 ta), Buxoro (191 ta), Jondor (220 ta), tumanlarida tashkil etildi. Kogon, Jondor, Vobkent tumanlarida bu ko'rsatkich o'rta darajani tashkil etgan. Eng past ko'satkichni Qorovulbozor (52 ta) tumanida tashkil etilgan.

2024 yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, foiz hisobida




2024 yil yanvar-iyun holatiga hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Buxoro shahriga 19,3 foiz, Qorako'l tumani 5,6 foiz, Romitan tumani 10,5 foiz, Kogon tumani 5,2 foiz, Jondor tumani 8,4 foiz, G'ijduvon tumani 8,2 foiz, Vobkent tumani 7,6 foiz, Kogon shahri 2,6 foiz, eng past ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida 2,0 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

	<i>yanvar-iyun 2023 yil</i>	<i>yanvar-iyun 2024 yil</i>
Jami	3 126	2 627
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	419	605
Sanoat	445	506
Qurilish	159	141
Savdo	1 080	665
Tashish va saqlash	460	194


	<i>yanvar-iyun 2023 yil</i>	<i>yanvar- iyun 2024 yil</i>
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	187	191
Axborot va aloqa	71	47
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	44	57
Boshqa turdagi xizmatlar	261	221

Yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, foiz hisobida




2024 yil 1 iyul holatida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida 30,4 birlikda, Buxoro shahrida 22,1 birlikda, Kogon tumanida 17,4 birlikda, Romitan tumanida 16,4 birlikda, Buxoro tumanida 10,3 birlikda va Peshko' tumanida 11,2 birlikda bo'lib, o'rtacha ko'rsatkich 11,8-9,8 birlik oralig'ida Jondor, Kogon shahar, Shofirkon va Olot tumanlarida aniqlandi. Qorako'l tumanida 7,3 birlikda ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda.

2024 yil 1 iyul holatida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda)



Agar, 2023 yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 13,1 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yil yanvar-iyun oylarida bu ko'rsatkich 12,5 birlikka etdi va 2023 yilning shu davriga nisbatan 0,6 birlik past.

Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda;)



2024 yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlari tomonidan:

-sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 6 420,2 mlrd. so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 38,5 foizi) yoki 2023 yil yanvar-iyungacha nisbatan fizik hajm indeksi 111,5 foizni tashkil qildi;

- 14 863,7 mlrd. so'mlik qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarining ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan xizmatlar) tashkil qilib, o'sish sur'ati 103,8 foizni (qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari yalpi mahsulotining 98,4 foizi) tashkil qildi;

- 12 745,1 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 52,2 foizi) o'zlashtirildi va 2023 yil yanvar-iyungacha nisbatan o'sish sur'ati 117,8 foizni tashkil qildi;

- 4 948,1 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 84,0 foizi) bajarildi va 2023 yil yanvar-iyungacha nisbatan o'sish sur'ati 108,0 foizni tashkil qildi;

-avtomobil transporti yuk aylanmasining 106,7 foizni (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 76,9 foizi), yo'lovchi aylanmasining esa 102,1 foizni (umumiy yo'lovchi aylanmasining 98,0 foizi) tashkil qildi;

- 6 298,0 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatilib (jami xizmatlar hajmining 60,0 foizi) 2023 yil yanvar-iyungacha nisbatan o'sish sur'ati 111,0 foizni tashkil qildi;


-chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 90,7 foizi yoki 7 707,0 mlrd. so‘mi (o‘sish sur‘ati 106,2 foizni tashkil qildi) shakllantirildi.

- 69,5 mln.AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 50,5 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2023 yilning mos davriga nisbatan 0,9 mln.AQSH dollarga yoki 1,3 foizga oshdi, mos ravishda 307,2 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 60,2 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi, bu esa 2023 yilning mos davriga nisbatan – 99,0 mln.AQSH dollarga kamaydi.

**Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning
asosiy ko‘rsatkichlari**

	<i>O‘lchov birligi</i>	<i>2023 yil</i>	<i>2024 yil</i>	<i>(+-)</i>
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlik	27 024	25 729	- 1295
Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar	birlik	3 126	2 627	-499
YAHM	foiz	69,7	69,5	-0,2
Sanoat	foiz	36,6	38,5	1,9
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	foiz	98,3	98,4	0,1
Investitsiya	foiz	64,4	52,2	-12,2
Qurilish	foiz	86,4	84,0	-2,4
Savdo	foiz	91,9	90,7	-1,2
Xizmatlar	foiz	59,5	60,0	0,5
Yuk tashish	foiz	90,1	90,7	0,6
Yuk aylanmasi	foiz	76,4	76,9	0,5
Yo‘lovchi tashish	foiz	97,0	97,1	0,1
Yo‘lovchi aylanmasi	foiz	98,1	98,0	-0,1
Eksport	foiz	47,1	50,5	3,4
Import	foiz	41,1	60,2	19,1

2024 yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiyot tarmoqlarida
kichik tadbirkorlik ulushining tuzilishi




2024 yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik sub'ektlari mahsuloti (ishlar,
xizmatlar) umumiy hajmidagi xususiy tadbirkorlikning
(fuqarolar mulki) ulushi

	<i>Kichik tadbirkorlik sub'ektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd.so'm</i>	<i>Kichik tadbirkorlik sub'ektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmida xususiy sektor ulushi, foizda</i>
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	14 863,7	100,0
Sanoat	6 420,2	99,4
Qurilish	4 948,1	34,3
Chakana savdo	5 449,3	70,7

Kichik tadbirkorlikning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlardagi ulushi
(umumiy hajmiga nisbatan mlrd.so'mda)


Hududlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Buxoro shahri (1 187,5 mlrd.so'm), Kogon tumani (770,3 mlrd.so'm), G'ijduvon tumani (712,8 mlrd.so'm) va Jondor tumani (618,7 mlrd.so'm) hissasiga to'g'ri keladi. Peshko' tumanlarida (264,5 mlrd.so'm) va Qorovulbozor tumani (262,5 mlrd.so'm) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.

2024 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushi Olot (95,1 foiz), Shofirkon (91,6 foiz), Jondor (88,5 foiz), Vobkent (78,8 foiz), Kogon (75,2 foiz) tumanlari va Kogon shahri (66,4 foiz) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga Romitan (37,7 foiz) va Qorovulbozor (3,8 foiz) tumanlarida kichik tadbirkorlikning ulushi pastligi kuzatildi.

**2024 yil yanvar-iyun holatiga jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning
hududlar bo'yicha ulushi, foizda**




Hududlar bo'yicha ko'proq qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi hajmi Jondor (1 922,9 mlrd.so'm), Buxoro (1 755,5 mlrd.so'm), G'ijduvon (1 638,3 mlrd.so'm), Qorako'l (1 591,9 mlrd.so'm) va Peshko' (1 398,1 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Kogon (49,7 mlrd.so'm) va Buxoro shaharlarida (172,9 mlrd.so'm) va Qorovulbozor tumanida (398,2 mlrd.so'm) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi hajmi past bo'lib qolmoqda.

2024 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Buxoro shahri (3 070,1 mlrd.so'm), G'ijduvon (1 286,3 mlrd.so'm), Qorako'l (609,9 mlrd.so'm) va Buxoro (513,4 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Olot tumani (227,4 mlrd.so'm), Qorovulbozor (162,6 mlrd.so'm), Peshko' (141,3 mlrd.so'm) va Kogon (62,9 mlrd.so'm) tumanida chakana tovar aylanmasi hajmi past bo'lib qolmoqda.

2024 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



Shahar va tumanlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Buxoro shahri (1 643,9 mlrd.so'm), G'ijduvon (1 019,4 mlrd.so'm), Jondor (430,6 mlrd.so'm), Buxoro (406,4 mlrd.so'm), Peshko' (402,3 mlrd.so'm) va Romitan (390,5 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

2024 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar hajmi va o'sish sur'ati



2024 yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning iqtisodiy tarmoqlardagi hududlar bo'yicha ulushi, foizda

	Sanoat	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	Investitsiya	Qurilish	Chakana savdo	Xizmatlar
Buxoro viloyati	38,5	98,4	52,2	84,0	90,7	60,0
Buxoro sh.	59,1	98,1	39,4	86,7	85,9	39,9
Kogon sh.	66,4	96,3	48,6	84,5	98,4	70,1
tumanlar						
Buxoro	53,4	99,5	47,1	96,2	99,5	78,1

*Buxoro viloyatining
ijtimoiy-iqtisodiy holati*

	<i>Sanoat</i>	<i>Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi</i>	<i>Investitsiya</i>	<i>Qurilish</i>	<i>Chakana savdo</i>	<i>Xizmatlar</i>
Vobkent	78,8	99,1	98,4	97,8	98,9	49,7
Jondor	88,5	98,2	95,7	98,9	98,9	77,5
Kogon	75,2	96,2	57,3	94,1	35,2	74,9
Olot	95,1	99,4	66,0	78,8	98,3	83,7
Peshko‘	56,7	99,2	88,5	98,8	58,4	71,3
Romitan	37,7	95,6	38,3	64,1	99,4	70,0
Shofirkon	91,6	99,3	98,0	98,7	99,1	76,4
Qorako‘l	57,2	98,9	17,1	46,0	99,1	75,2
Qorovulbozor	3,8	92,6	84,9	55,1	99,5	64,8
G‘ijduvon	47,6	99,6	90,7	98,9	97,0	81,8

Hududlar bo‘yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Olot (95,1 foiz), Shofirkon (91,6 foiz), Jondor (88,5 foiz), Vobkent (78,8 foiz), Kogon (75,2 foiz) tumanlarida va Kogon shahri (66,4 foiz) tashkil etadi.


Investitsiyada eng yuqori ulushlarni Shofirkon (98,0 foiz), Jondor (95,7 foiz), G‘ijduvon (90,7 foiz), Peshko‘ (88,5 foiz) va Vobkent (98,4 foiz) tumanlari tashkil etadi.

Qurilishda Vobkent (97,8 foiz), Peshko‘ (98,8 foiz), Jondor (98,9 foiz), G‘ijduvon (98,9 foiz), Shofirkon (98,7 foiz) va Buxoro tumanlari (96,2 foiz) tashkil etadi.

Chakana savdoda Buxoro (99,5 foiz), Qorako‘l (99,1 foiz), Qorovulbozor (99,5 foiz), Romitan (99,4 foiz) va Shofirkon (99,1 foiz) tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Olot (83,7 foiz), G‘ijduvon (81,8 foiz) va Buxoro (78,1 foiz) tumanlari tashkil etadi.

2024 yil yanvar-iyun oylarida yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) ulushining o'zgarishi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2024 yil II-chorak yakunlariga ko'ra, mikrofirmalar va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 1 377 ta respondentlar ishtirok etdi.

Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 41,4 foiz iqtisodiy vaziyatni qulay va 53,8 foiz esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida 35,1 foiz va 59,4 foiz, xizmatlar sohasida 32,2 foiz va 62,0 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 20,0 foiz va 71,8 foiz, sanoatda 33,3 foiz va 58,1 foizni tashkil qilganini ko'rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda 8,6 foiz, qurilishda 4,8 foiz, qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida 8,2 foiz, xizmatlarda 5,8 foiz va savdoda 5,5 foizni tashkil qildi.

**Kichik tadbirkorlikda iqtisodiy vaziyatni baholash
2024 yil II -chorak uchun, foizda**



Iqtisodiy vaziyat yaqin uch oyda qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida yaxshilanish 46,4 foiz, oʻzgarishsiz 51,8 foiz, yomonlashish 1,8 foiz, sanoat korxonalarida yaxshilanishi 49,4 foiz, oʻzgarishsiz 47,7 foiz, yomonlashish 2,9 foiz, savdo yaxshilanish 46,9 foiz, oʻzgarishsiz 50,5 foiz, yomonlashish 2,6 foiz, xizmatlarda yaxshilanish 45,2 foiz, oʻzgarishsiz 53,1 foiz, yomonlashish 1,7 foiz va qurilish sohasida yaxshilanish 48,1 foiz oʻzgarishsiz 51,9 foiz, yomonlashish kuzatilmadi.

**Kichik tadbirkorlik (biznes)da iqtisodiy vaziyatning o'zgarishlar
istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, foizda**



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko'rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati sub`ektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir. Tadbirkorlik faoliyati sub`ektlari (tadbirkorlik sub`ektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi. Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lishlari kerak.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik – jismoniy shaxs (yakka tartibdagi tadbirkor) tomonidan tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda amalga oshirishdir.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan mustaqil mulk huquqi asosida o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek, mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq asosida amalga oshiriladi.

Tadbirkorlik sub`ektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Korxonaning faoliyatini tahlil qilish – uning asosida korxonaning faoliyatini xar tomonlama o'rganish. Natijada, ma'lumot to'plashning ma'lum usullaridan foydalanish orqali korxonaning faoliyatini baholash va zaif tomonlarini aniqlash uchun kerakli ma'lumotlarni olish.

Chakana savdo – bu oxirgi foydalanuvchilarga tovarlar va xizmatlar sotish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat. Ulgurji savdo – bu katta miqdordagi tovarlarni sotishni o'z ichiga olgan iqtisodiy faoliyat.

Tovarlarni realizatsiya qilish – mahsulotni samarali sotishga qaratilgan ishlab chiqaruvchi tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi.

Reklama – bu xaridorlarning keng doirasi o'rtasida mahsulot to'g'risida ma'lumotni samarali tarqatish usuliga asoslangan reklama vositasining kommunikativ shakli.

Tavakkalchilik – kelajakda har qanday harakatlarni amalga oshirishda, qaror qabul qilishda mumkin bo'lgan yo'qotishlar.

Bozor – bu savdo operatsiyalarini amalga oshirish munosabati bilan turli shaxslar o'rtasida shakllanadigan munosabatlar tizimi.